

## SHAXSSIZ GAPLAR IMPERSONAL SENTENCES (IT ...)

Ingliz tilida har qanday gapning egasi bo'lishi kerak. Shuning uchun o'zbek tilidagi **Qish. Sovuq. Qorong'i.** kabi gaplarni ingliz tilida ifodalash uchun **it** olmoshini ega vazifasida qo'llash kerak.

<i>Ega</i>	<i>Kesim</i>	
It	is dark.	Qorong'i.
It	is cold.	Sovuq.
It	is easy.	Oson.
It	rained.	Yomg'ir yog'di

Bunday gaplardagi **it** olmoshi o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi. Bog'lovchi va yordamchi fe'llar (is, was, will be, had been) shaxs va zamonni ifodalash uchun ishlatiladi.

It's getting late.  
Kech bo'lyapti.  
It's too early to go now.  
Ketishga hali juda erta.  
It was dark.  
Qorong'i edi.  
It won't be easy.  
Oson bo'lmaydi.

Kesimning ismdan iborat qismi odatda ot, sifat, son, ravish turkumlaridan biriga oid so'zdan iborat bo'ladi.

It's summer now.  
Hozir yoz (fasli).  
It was warm and so he didn't put on his coat.  
Havo iliq edi, shuning uchun u paltosini kiymadi.  
It was nine (o'clock) when we got home.  
Uyga kelganimizda soat to'qqiz edi.  
It was early morming.  
Erta tong edi.

Shaxssiz gaplar odatda quyidagi holatlarda qoʻllanadi:

1. Tabiat hodisalarini ifodalashda:

It rains often in England.  
Angliyada tez-tez yomgʻir yogʻadi.  
It doesn't snow in summer.  
Yozda qor yogʻmaydi.  
It rained last morning.  
Kecha ertalab yomgʻir yogʻdi.  
It snowed much last winter.  
Oʻtgan qish koʻp qor yogʻdi.  
It is not raining now.  
Hozir yomgʻir yogʻmayapti.

2. Ob-havo sharoitini ifodalashda:

It is windy.  
Shamol.  
It is foggy.  
Tuman.

Havoning ochiq yoki bulutli, issiq yoki sovuq ekanligi kabi belgilari ifodalangan inglizcha gaplar o'zbek tiliga "havo" yoki "kun" so'zini qo'shib tarjima qilinadi.

It's warm.	It's cloudy.	It is fine.
Havo iliq.	Havo bulut.	Havo yaxshi.
It is hot	It is cold	It's sunny.
Kun issiq.	(Kun) sovuq.	Havo ochiq (quyoshli)

3. Vaqtni ifodalashda:

It's five o'clock.  
Soat besh.  
It's time to go home.  
Uyga ketadigan vaqt boʻldi.  
**It was** early when we got home.  
Uyga kelganimizda hali erta edi.  
**It will be** cold when winter sets in.  
Qish kirgach, sovuq boʻladi.

4. Masofani ifodalashda:

It is a long way from here to the airport.  
Bu yerdan aeroportgacha uzoq.  
We can walk home. It isn't far.  
Uyga piyoda ketishimiz mumkin. Uzoq emas.  
It's 20 miles from our village to the nearest town.  
Qishlog'imizdan eng yaqin shahargacha 20 mil (*masofa bor*).

5. Harakat yoki hodisaga munosabatni ifodalashda:

It's easy.	It's nice.	It's dangerous.
Oson.	Maroqli.	Havfli.
It's possible.	It's good.	It's wonderful.
Mumkin.	Yaxshi.	G'aroyib.
It's safe.	It's difficult.	It's expensive.
Ishonchli.	Qiyin.	Qimmat.
It's stupid.	It's impossible.	It's terrible.
Ahmoqlik.	Mumkin emas.	Azob.
It's cheap.		It's O.K.
Arzon.		Yaxshi.